

YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH: XORIJIY TAJRIBA VA TAHLIL

*Mardanova Ra‘no Isakovna*¹⁰
*Abdusalomova Istoraxon Ilhom qizi*¹¹
*Rajabov Sherzod Baxtiyorovich*¹²
*Sofoyeva Fotima Davlatyorovna*¹³

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan global ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va atrof-muhitning ifloslanishi – barqaror rivojlanishga tahdid solmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun an‘anaviy iqtisodiy rivojlanish modellari o‘rniga yangi, ekologik barqaror yondashuvlar zarur bo‘lib qoldi. Shunday yondashuvlardan biri bu — yashil iqtisodiyot konsepsiyasidir.

Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, iqtisodiy o‘sishga erishishni maqsad qilgan yondashuvdir. U qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, toza texnologiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanishga asoslanadi. BMT, Yevropa Ittifoqi, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar ushbu modelni global darajada ilgari surib kelmoqda.¹⁴

Bugungi kunda dunyodagi ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar yashil iqtisodiyotni o‘zining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida tanlab olgan. Bu jarayon har bir hududda turlicha shakllanmoqda, biroq umumiy yo‘nalish — ekologik barqaror va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat.

“Yashil o‘sish” indeksi bo‘yicha Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin olib, ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va yashil iqtisodiyot imkoniyatlarini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishgan. Ushbu davlatlarning reytingi ularning ekologik siyosati, qayta tiklanadigan energiya ulushi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ko‘rgan choralari va iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan harakatlari bilan bog‘liq.

Shvetsiya eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etib, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy qamrov bo‘yicha yetakchilik qiladi. Daniya esa yashil texnologiyalar va ekologik barqarorlikni rivojlantirish borasida uzoq yillik tajribaga ega bo‘lib, iqtisodiyotini uglerod chiqindilarini kamaytirishga yo‘naltirgan. Chexiya ham yashil o‘sish strategiyasini faol qo‘llab-quvvatlab, ekologik innovatsiyalar va chiqindilarni boshqarish bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishgan. Germaniya esa

¹⁰ Xalqaro Nordik Universiteti Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasida dotsenti, PhD

¹¹ Xalqaro Nordik Universiteti Sanoatini boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

¹² Xalqaro Nordik Universiteti Sanoatini boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsent v.b.

Email:sh.rajabov@nordicuniversity.org

¹³ Xalqaro Nordik Universiteti Sanoatini boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasida o‘qituvchisi

¹⁴ https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/yeuropa-ittifoqi-va-bmt-xalqaro-tinchlik-xavfsizlik-inson-huquqlari-va-barqaror-rivojlanishni_uz?s=233

sanoat jihatdan rivojlangan bo‘lishiga qaramay, yashil energiyaga o‘tish va ekologik standartlarni oshirish borasida yetakchi pozitsiyada turadi. Umuman olganda, ushbu davlatlar ekologik barqarorlikni ta‘minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni muvozanatlashtirish va yashil iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha izchil siyosat yuritmoqda.

1-jadval

“Yashil o‘shish” indeksida top 5-lik davlatlar (Yevropa hududi bo‘yicha)¹⁵

Davlat	Umumiy indeks bali	Resurslardan samarali foydalanish	Tabiiy kapitalni himoya qilish	Yashil iqtisodiy imkoniyatlar	Ijtimoiy inklyuzivlik
Shvetsiya	78.72	87.78	78.14	59.53	94.06
Daniya	76.77	85.34	75.89	62.41	91.22
Chexiya	74.20	82.15	70.43	58.27	88.30
Germaniya	73.85	80.78	72.11	60.95	89.45

Osiyo hududi bo‘yicha Yaponiya eng yaxshi “Yashil o‘shish” ko‘rsatkichiga ega davlat hisoblanib, umumiy 61.83 ko‘rsatkichni qayd etadi. Xitoy aholi soni ko‘pligi hamda havoning ifloslanish darajasiga ko‘ra eng yuqori o‘rinlarni qayd etib kelmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay, Xitoy Osiyo mintaqasida “Yashil o‘shish” darajasi bo‘yicha 3-o‘rinni qayd etdi. Xitoyning umumiy ko‘rsatkichi 58.33 ni tashkil etadi. Jadvalda keltirilgan davlatlar o‘rtasida resurslardan samarali va barqaror foydalanish bo‘yicha Filippin yetakchilikni qayd etib, uning umumiy ko‘rsatkichi 63.68 ni tashkil etadi.

2-jadval

“Yashil o‘shish” indeksida top 5-lik davlatlar (Osiyo hududi bo‘yicha)

Davlat	Umumiy Yashil O‘shish Indeksi	Ijtimoiy qamrov	Resurslardan samarali foydalanish	Havoning ifloslanish darajasi
Yaponiya	61.83	Yuqori	O‘rtacha	Past
Xitoy	58.33	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori
Filippin	63.68	O‘rtacha	Yuqori	Past

Tahlil va xulosa

Bugungi global iqtisodiy va ekologik vaziyat yashil iqtisodiyotga o‘tishni nafaqat zarur, balki shart bo‘lgan strategik yo‘nalish sifatida ko‘rsatmoqda. Dunyodagi ko‘plab mamlakatlar bu borada faol siyosat yuritmoqda va har biri o‘ziga xos yondashuvni tanlagan.

Yevropa davlatlari – xususan, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya – yashil o‘shish indeksida yetakchi o‘rinlarni egallab, ekologik barqarorlik,

¹⁵ <https://greengrowthindex.gggi.org/wp-content/uploads/2021/01/2020-Green-Growth-Index.pdf>

resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy inklyuzivlik va yashil texnologiyalarni joriy etishda muvaffaqiyatli tajribani namoyon etmoqda. Ularning tajribasida ekologik muammolarga kompleks yondashuv, davlat siyosatining aniqligi va aholining ekologik madaniyati muhim rol o‘ynaydi.

Osiyo mamlakatlari ham bu sohada sezilarli siljishlarga erishmoqda. Yaponiya innovatsiyalarga tayangan holda yashil iqtisodiyotda oldinga chiqmoqda. Xitoy esa o‘zining sanoat salohiyati va aholi soniga qaramay, qayta tiklanuvchi energiya, elektr transport va ekologik texnologiyalar orqali muhim o‘rin egallamoqda. Filippin kabi davlatlar esa resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkichlarga erishgani bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati quyidagi asosiy omillarga bog‘liq:

- ✓ Davlat siyosatining aniqligi va qat’iyati,
- ✓ Moliyaviy va texnologik imkoniyatlar,
- ✓ Aholining ekologik ongini oshirish,
- ✓ Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotni joriy etish nafaqat ekologik muammolarning oldini olish, balki iqtisodiy o‘sishni yangi darajaga olib chiqish, yangi ish o‘rinlari yaratish va jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlash imkonini beradi. Bu jarayonda har bir davlat o‘zining sharoitiga mos, lekin global maqsadlarga uyg‘un strategiyalarni tanlashi lozim. Xorijiy tajribani tahlil qilish orqai mamalakatimiz ham o‘z yashil iqtisodiyot strategiyasini samarali shakllantirishi mumkin va amalaga oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ziyadullayevich, Sadinov Aziz, and Rajabov Sherzod Bakhtiyarovich. "of waste recycling in the digital economy»." *редакционная коллегия*: 563.
2. Rajabov S. the significance of innovation in the transformation of the digital economy //nordic_press. – 2024. – т. 3. – №. 0003.
3. Sadinov, A., & Rajabov, S. (2023). Utilizing digital technologies for waste management. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 381, p. 01096). EDP Sciences.
4. Кобилов, А. У., Тулаев, М. С., Ражабов, Ш. Б., & Маматкодирова, Н. У. (2021). Правовая основа формирования цифровой экономики в республике узбекистан. *Экономика и социум*, (12-2 (91)), 96-104.